

BLOK TEST

Test kodi: 9386

Ona tili (1.1 ball)

1. yugurmoq fe'li qaysi gap tarkibida o'z ma'nosida qo'llangan?

- A) Qaynoqqina qahva ichganidan so'ng vujudiga issiqlik yugurdi.
- B) Bola ortda qolmaslik uchun onasining orqasidan yugurdi.
- C) Olimjon ishini bitirish uchun qog'oz ko'tarib ancha yugurishiga to'g'ri keldi.
- D) Shabada yugursa gulzor uzra, muattar bo'y urilar dimog'ga.

2. Qaysi gapda vergul undalmani boshqa bo'laklardan ajratish uchun qo'yilgan?

- A) Soy bo'yidagi choyxonada, gavjum joyda, Azimjon uchradi.
- B) Kinga pand-u nasihat qilsang, unga, avvalo, o'zing amal qil.
- C) Birozdan so'ng Hasan aka, fizika o'qituvchisi, kirib keldi.
- D) Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o'zbekim.

3. Qaysi gap tarkibida orttirma darajadagi sifat qo'llangan?

- A) Bizning Shahlo o'zi kichkina bo'lsa ham, ziyrak qiz.
- B) Bartiyorning shalpangquloq, jajji kuchukchasi bor.
- C) Bo'yi mendan baland-u, o'zi sap-sariq.
- D) Shamning qizg'ish shu'lasi kulbaga fayz berib turar edi.

4. Bog'langan qo'shma gap berilgan javobni toping.

- A) Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.
- B) Shunday yashir odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim.
- C) Aqlli ishiga ishonadi, aqlsiz tushiga ishonadi.
- D) Bilmasdan qilingan har qanday aybni kechirish mumkindir, ammo xiyonatni kechirib bo'lmaydi.

5. Qaysi javobda berilgan gapda imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan so'z ishtirok etgan?

- A) Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir.
- B) Agar shu topshiriqni bajarmasa, obro'i bir pul bo'ladi.
- C) Ertalab o'rningdan quvonch bilan tur, kechqurun kulgi bilan uzlashga yot.
- D) Xalq seniki emas, sen xalqnikisan.

6. Qaytdi buyuk alloma o'z yurtin quchog'iga. Qaysi javobda ushbu gapdagi gap bo'laklarining odatdagi tartibda joylashuvi to'g'ri berilgan?

- A) Buyuk alloma qaytdi o'z yurtin quchog'iga.
- B) Buyuk alloma o'z yurtin quchog'iga qaytdi.
- C) Qaytdi alloma o'z yurtin buyuk quchog'iga.
- D) O'z yurtin quchog'iga buyuk alloma qaytdi.

7. Berilgan qaysi so'zlar qatori imloviy jihatdan xato yozilgan?

- A) zahil, immunitet
- B) qurulla, supra
- C) juz'iy, zahm
- D) tafsiya, taasuf

8. Qaysi javobda berilgan so'zlar ot so'z turkumiga mansub?

- A) imtihon, ko'ylak, shirinlik, shoir
- B) tog'a, hamma, Shirin, tepa
- C) barcha, katta, olim, ko'p
- D) bobo, qarmoq, nima, kim

9. Sizdan talab shuki, vaqtni qadriga yetishingiz, uni behuda o'tkazmasligingiz lozim.

Ushbu gapda qaysi kelishik qo'shimchasi uslubiy jihatdan xato qo'llangan?

- A) qaratqich kelishigi
- B) tushum kelishigi
- C) chiqish kelishigi
- D) jo'nalish kelishigi

10. Masalan, radiodan yoqtirgan kuyingizni tinglab xursand bo'lsangiz, kutilmaganda hayotning tuhfasiga ega bo'lasiz, kayfiyatingiz chog' bo'ladi – bularning hammasi tortishish qonunining kuchidir. Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan so'zni unga mos ibora bilan almashtiring.


- A) ko'ngilga xush keladigan
- B) labidan kulgi arimaydigan
- C) dimog'ingiz chog' bo'lsa
- D) chehrasi ochiq

Matematika (1.1 ball)

11. Eng katta to'rt xonali juft sondan eng kichik uch xonali natural toq sonni ayiring.

- A) 9890 B) 9897 C) 9876 D) 9898

12. Sonlar o'qi tasvirlangan.



Quyidagi munosabatlardan qaysi biri noto'g'ri?

- A) $ac > 0$ B) $ab < 0$
C) $abc > 0$ D) $bc < 0$

13. $2, 5 \cdot (6x - 4) = 12x + 5$ tenglamani yeching.

- A) 5 B) 15 C) 3 D) 4


14. Sotuvchi 600 kilogramm meva sotganidan so'ng 200 kilogramm meva (sotilmay) qoldi. Sotuvchi mevaning necha foizini sotgan?

- A) 60% B) 75% C) 67% D) 33%

15. 1; 2; 3 raqamlaridan foydalanib (raqamlari takrorlanmaydigan) nechta uch xonali natural son hosil qilish mumkin?


- A) 4 B) 5 C) 6 D) 3

16. Rasmdagi ma'lumotlardan foydalanib bo'yalgan sohalar yuzalarining yig'indisini (dm^2) hisoblang.



- A) 36 B) 72 C) 24π D) 72π

17. Chizmada silindrsimon idishga 16 litr suv bo'lgan. Idishda ma'lum miqdorda suv olingan. Idishda qancha litr suv qolgan?



- A) 4 B) 12 C) 8 D) 6

18. Hisoblang. $122 \cdot 123 + 123 \cdot 25 - 123 \cdot 37$

- A) 13530 B) 12300 C) 15330 D) 12530

19. $2 \text{ t } 13 \text{ sr } 23 \text{ kg} = ? \text{ kg}$

- A) 21323 B) 2323 C) 3323 D) 3123

20. Kubning tomoni 4 sm bo'lsa, uning hajmini toping (sm^3).

- A) 16 B) 64 C) 24 D) 48

Tarix (1.1 ball)

21. "Xoqonga foydali maslahatlar" asari qaysi sulola davrida yozilgan?

- A) Arabshohiylar
B) Mang'itlar
C) Ashtarxoniyalar
D) Minglar

22. Quyidagilardan Temuriylar davlatining poytaxti berilgan javobni aniqlang.

- A) Toshkent
B) Samarqand
C) Buxoro
D) Qo'qon

23. Buxoroda birinchi jadid maktabi nechanchi yilda ochilgan?

- A) 1888-yil
B) 1893-yil
C) 1899-yil
D) 1898-yil

24. Xorazm VIII asr boshlarida qaysi davlatga qaram bo'lib qolgan edi?

- A) Arab xalifaligi
B) Somoniylar
C) Gaznaviylar
D) Saljuqiylar

25. Qaysi hukmdor davrida Samarqand shahri baland devor bilan o'ralgan?

- A) Amir Shohmurod
B) Doniyolbiy otaliq
C) Amir Haydar
D) Amir Nasirullo

26. Quyidagilar orasidan VI asr o'rtalarida tashkil topgan davlatni aniqlang?

- A) Eftallar
- B) Turk xoqonligi
- C) Xioniylar
- D) Kidariylar

27. Sho'robashat va Uchqo'rg'on shaharlari qaysi qadimiy davlatda joylashgan?

- A) Kushon
- B) Qang'
- C) Davan
- D) Xorazm

28. Markaziy Osiyo hududida 1533-yilda tashkil topgan davlatni aniqlang?

- A) Buxoro xonligi
- B) Xiva xonligi
- C) Qo'qon xonligi
- D) Buxoro amirligi

29. XIX asr oxirlarida Erjar qishlog'i qaysi davlat tarkibida bo'lgan ?

- A) Eron
- B) Qo'qon xonligi
- C) Buxoro amirligi
- D) Xiva xonligi

30. XVII asrda Buxoroda qaysi sulola hukmronlik qilayotgan edi?

- A) Shayboniylar
- B) Ashtarxoniylar
- C) Mang'itlar
- D) Qo'ng'irotlar

Biologiya (3.1 ball)

31. Qaysi javobda qo'zoq meva hosil qiladigan o'simlik keltirilgan?

- A) arpa
- B) chuchmomo
- C) burchoq
- D) karam

32. Qaysi javobda jinssiz ko'payish bilan bog'liq jarayonlar ko'rsatilgan?

- a) urug'lanmagan tuxum hujayralardan erkak asalarilarning rivojlanishi;

b) ulotriksning to'rt xivchinli zoosporalarni hosil qilishi;

- c) ossillatoriyaning gormogoniylar hosil qilishi;
- d) terak o'simligida meva va urug'larning hosil bo'lishi.

A) b, c B) b, d C) a, d D) a, c

33. Zog'ora baliqning ikkinchi tartib ovotsit hujayrasidagi (a) va shimpanzening spermatidasidagi (b) xromosomalar soni to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) a - 102; b - 46
- B) a - 52; b - 48
- C) a - 104; b - 24
- D) a - 52 b - 24

34. Qaysi javobda organizmlar qon aylanish sistemasining arterial (1) va venoz (2) qon harakatlanadigan qismlari to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 1 - qarchig'ayning o'pka venasi; 2 - ko'l baqasi yuragining chap bo'lmachasi
- B) 1 - jirafa yuragining o'ng bo'lmasi; 2 - lososning orqa aortasi
- C) 1 - lansetnikning orqa aortasi; 2 - ko'k sug'urning o'pka arteriyasi
- D) 1 - ilonboshning qorin aortasi; 2 - suv shillig'ining yurakoldi bo'lmasi

35. Quyida berilgan ma'lumotlardan nechitasi kaputsin va kayra uchun umumiy hisoblanadi?

- a) buyraklarida kiprikchali voronkalari mavjud;
- b) nefronlari tarkibida Genle halqasi mavjud;
- c) embrional rivojlanish davri ona organizmida amalga oshadi;
- d) urg'ochilari bir juft tuxumdonga ega;
- e) gomoyoterm organizm;
- f) miyacha yuzasida burmalari mavjud;
- g) ko'krak va qorin bo'shlig'i diafragma parda orqali bir-biridan ajralgan.

- A) to'rttasi
- B) ikkitasi
- C) uchtasi
- D) beshtasi

36. Tarkibida bir nechta glikozid bog'i mavjud bo'lgan moddalar to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- 1) glukoza; 2) kraxmal; 3) laktoza; 4) riboza;
- 5) selluloza; 6) pektin; 7) glitseraldegid.
- A) 3,5,7
- B) 1,5,6
- C) 2,5,6
- D) 1,3,4

37. Ayrish sistemasi kloaka bo'shlig'iga ochiladigan hayvonni aniqlang.

- A) beluga
- B) kasatka
- C) suqsun
- D) ondatra

38. Echkinning ($2n=54$) birinchi tartib spermatositlari (a) va qora kalamushning

($2n=38$) tuxum hujayrasi (b) tarkibi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) $a - 26$ ta autosoma va jinsiy X yoki Y xromosoma; $b - 18$ ta autosoma va jinsiy X xromosoma
 B) $a - 26$ juft autosoma va bitta jinsiy Y xromosoma; $b - 18$ ta autosoma va jinsiy X yoki Y xromosoma
 C) $a - 26$ juft autosoma va jinsiy XY xromosoma; $b - 18$ ta autosoma va jinsiy X xromosoma
 D) $a - 26$ ta autosoma va jinsiy XY xromosoma; $b - 18$ ta autosoma va jinsiy X yoki Y xromosoma

39. Quyidagi jadvalda DNK fragmenti haqidagi ma'lumotlar ifodalangan.

Vadorad bog'lar soni	Jami adenin nukleotidlari soni	Jami sitozin nukleotidlari soni	Uzunligi (nm)
a	42	38	b

Jadvaldagi noma'lum b ni aniqlang.

- A) 26,80 B) 53,72 C) 54,4 D) 27,2

40. Kungaboqar o'simligi haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) savatcha to'pgulga ega
 B) bir urug'li ho'l mevaga ega
 C) murakkab to'pgulga ega
 D) ko'p urug'li quruq mevaga ega

41. Tanasi mantiya teri bilan qoplangan hayvon to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) *midia* B) *nercida*
 C) *qoraqurt* D) *daryo qisqichbaqasi*

42. Quyida berilgan organizmlarga xos bo'lgan ma'lumotni aniqlang.

- 1) ♂ belyanka; 2) ♀ gekkon; 3) ♂ drozafila
 4) ♀ maral
 A) 2, 3 gomogametali: 1, 4-geterogametali
 B) 1, 3 gomogametali: 2, 4 geterogametali
 C) 2, 4 gomogametali: 1, 3-geterogametali
 D) 1, 4 gomogametali: 2,3-geterogametali

43. Bo'yin umurtqalari rivojlangan, ichki urug'lanish jarayoni kuzatiladigan hayvonlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) o'rdakburun; 2) triton; 3) kvaksha baqasi;
 4) echkamar; 5) forel; 6) cho'l toshbaqasi.

- A) 5, 6 B) 2, 3 C) 4, 6 D) 1, 3

44. Quyidagi ma'lumotlar biologik progressning qaysi yo'nalishlariga mos kelishini aniqlang.

- I. Uchlamchi davr oxirlarida avstralopitekklarning kelib chiqishi;
 II. Zebalar terisining yo'l-yo'l tusda bo'lishi;
 III. Negroid irqiga mansub odamlar terisining qora rangda bo'lishi;
 a) katagenez; b) allojenez, c) arojenez.
 A) I - c; II - b; III - b
 B) I - b; II - a; III - a
 C) I - c; II - b; III - a
 D) I - a II - b; III - c

45. Vixuxol va vyurok uchun umumiy ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) buyraklarida Genle halqasi mavjud;
 2) bir marta olgan havosidan ikki marta nafas oladi;
 3) termoregulyatsiya jarayoni ter ajralish orqali ta'minlanadi;
 4) siydik yo'li kloakaga ochiladi; 5) ichki urug'lanish kuzatiladi; 6) ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i diafragma parda orqali ajralgan.
 A) 2,4 B) 1,5 C) 1,3 D) 3,6

46. Qaysi javobda har xil ekologik nishani egallaydigan organizmlar juftligi to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) olmaxon va bug'u; 2) zebra va jirafa; 3) qizilishton va olmaxon; 4) moskovka chittagi va kokilchali chittak; 5) dasht qoramoli va kenguru; 6) lazorevka chittagi, va qizilishton;
 7) gnu antilopasi va g'izol
 A) 2,3,7 B) 1,5,6 C) 1,3,5 D) 2,5,7

47. Qaysi organizmlarda zigota bir tekis (a) va notekis (b) maydalanadi?

- A) $a - \text{lansetnik}$, $b - \text{ildam kaltakesak}$
 B) $a - \text{qum bo'g'ma iloni}$; $b - \text{miqqiy}$
 C) $a - \text{ko'k kaptar}$; $b - \text{lansetnik}$
 D) $a - \text{suvkesar}$; $b - \text{oq laylak}$

48. Odamning eritrotsit hujayrasida uchraydigan oqsilni aniqlang.

- A) *tromboplastin* B) *fibrinogen*
 C) *agglyutinogen* D) *protrombin*

49. Energiya alimshinuvining glikoliz bosqichida 1600 kJ energiya hosil bo'ldi. Glikoliz bosqichida hosil bo'lgan sut kislotalarning 1/4

qismi parchalangan bo'lsa, aerob bosqichda hosil bo'lgan ATF molekulalari sonini aniqlang.

A) 72 B) 144 C) 180 D) 88

50. Tovuq va xo'rozlarda pat rangining chipor bo'lishi dominant, qora bo'lishi esa retsessiv genlarga bog'liq bo'lib, jinsiy X xromosomaga brikkan holda irsiylanadi. Ushbu belgilarning irsiylanishiga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

A) qora patli xo'roz va tovuqlar chatishtirishdan olingan jo'jalarning 50% chipor patlarga ega bo'ladi.

B) qora patli xo'roz va chipor tovuqlar chatishtirishdan olingan urg'ochi jo'jalarning barchasi chipor patlarga ega bo'ladi.

C) qora patli xo'roz va chipor tovuqlar chatishtirishdan olingan jo'jalarning 1/2 qismi qora patlarga ega bo'ladi.

D) chipor patli tovuq va xo'rozlar chatishtirilishidan olingan erkak jo'jalarning barchasi qora patlarga ega bo'ladi.

51. O'simliklardagi asosiy ildiz shaklining o'zgarishidan hosil bo'lgan organlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) lavlagining ildizmevasi; 2) banyanning tayanch ildizlari; 3) sabzining ildizmevasi; 4) qamishning ildizpoyasi; 5) makkajo'xorining qo'shimcha ildizlari; 6) oq jo'xorining popuk ildizlari; 7) yalpizning ildizpoyasi; 8) sholg'omning ildizmevasi.

A) 2, 7 B) 5, 6 C) 1, 4 D) 3, 8

52. Qaysi javobda gidrofil modda berilgan?

A) xitin B) galaktoza
C) pektin D) lizinin

53. Fosfolipid, kletchatka, ATF. Ushbu organik moddalar uchun umumiy xususiyatni aniqlang.

A) geteropolimer modda
B) gidrofob modda
C) gidrofill modda
D) gomopolimer modda

54. Quyidagi matnda ifodalangan tur mezonlarini aniqlang.

Boltayutar O'rta Osiyoda tarqalgan bo'lib, asosan tog'li hududlarda uchraydi, Dekabr - fevral oylarida 1 - 2 ta tuxum qo'yadi va 55 - 60 kun davomida bosib yotadi.

A) morfologik, ekologik, fiziologik
B) geografik, ekologik, fiziologik
C) geografik, biokimyoviy, fiziologik

D) geografik, ekologik, genetik

55. 450 ta nukleotidga ega bo'lgan DNK qo'sh zanjiri $(A+T) / (G+C) = 4$ tenglik o'rinli bo'lsa, ushbu DNK fragmentidagi guanin nukleotidlari sonini aniqlang.

A) 90 B) 45 C) 180 D) 120

56. Quyidagi xususiyatlarga mos keluvchi biopolimerlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

a) har xil tipdagi monomerlardan tashkil topgan;

b) bir xil tipdagi monomerlardan tashkil topgan;

A) a- rodopsin, keratin; b- galaktoza, glikogen

B) a- kollagen, t-RNK; b- kraxmal, selluloza

C) a- geparin, kraxmal; b- gemoglobin, insulin

D) a- xolestirin, DNK; b- glikogen, selluloza

57. Quyidagi berilgan jadvaldagi [X] [Y] [Z] ga tegishli bo'lgan suyaklarni aniqlang.

Yassi	Naysimon	G'ovak
Yuz	Yelka	umurtqa
Ensa	Tirsak	Z
Kurak	Y	Qovurg'a
Chanoq	Kaft	To'sh
X	Son	Kaftusti

A) X-yuz; Y-kurak; Z-tepa;

B) X-tepa; Y-boldir; Z-yuqori jag';

C) X-o'mrov; Y-kurak; Z-boldir;

D) X-tepa; Y-boldir; Z-o'mrov;

58. Quyida ko'payishning qaysi usuliga ta'rif berilgan ?

"Suvo'tlar, zamburug'lar, sodda hayvonlarda uchraydi. Avval yadro bir necha bo'laklarga bo'linadi, so'ngra sitoplazma bo'linib, yadrolarni o'raydi. Natijada bir hujayradan bir necha hujayra hosil bo'ladi".

A) kurtaklanish

B) shizogoniya

C) oddiy bo'linish

D) poliembrional ko'payish


59. Biosfera evolutsiyasining biogenez (a) va noogenez (b) davrlariga xos jarayonlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) daraxtsimon o'simliklarning yoppasiga halok bo'lishi natijasida o'sha joylarda ko'mir qatlaminig hosil bo'lishi.

2) arxarmerinos qo'y zotining olinishi;

- 3) metallar biotexnologiyasida misning olinishi;
 4) kalamitlarning qirilib ketishi;
 A) $a - 2; b - 1$ B) $a - 3; b - 1$
 C) $a - 3; b - 2$ D) $a - 4; b - 3$

60. Quyidagi rasmda qaysi o'simliklarga xos barglar tasvirlangan?




- A) 1- beda; 2- yeryong'oq;
 B) 1- beshyaproqli partenotsissus; 2- shirinmiya
 C) 1- sebarga; 2- yong'oq
 D) 1- no'xat; 2- na'matak

Kimyo (2.1 ball)

61. Kimyoviy elementlar davriy jadvalining asosiy guruhida yuqoridan pastga qarab elementlarning elektrmanfiylik qiymati va metallik xossasi qanday o'zgaradi?

- A) elektrmanfiylik qiymati ham, metallik xossasi ham kamayadi
 B) elektrmanfiylik qiymati ortadi, metallik xossasi kamayadi
 C) elektrmanfiylik qiymati kamayadi, metallik xossasi ortadi
 D) elektrmanfiylik qiymati ham, metallik xossasi ham ortadi

62. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasidagi jami koeffitsiyentlar yig'indisini aniqlang.



- A) 33 B) 53 C) 23 D) 20

63. Berilganlardan alkanlar uchun xos bo'lganlarini tanlang.

- 1) to'yingan uglevodorodlar; 2) molekulasida barcha uglerod atomlari o'zaro faqat σ bog'lar vositasida bog'langan; 3) yopiq zanjirli tuzilishga ega; 4) ochiq zanjirli tuzilishga ega; 5) umumiy formulasi C_nH_{2n} ; 6) birikish reaksiyasiga kirishmaydi; 7) molekulasidagi uglerod atomlari faqat sp^3 gibridlangan.

- A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 5, 6, 7
 C) 3, 4, 5, 6, 7 D) 1, 2, 4, 6, 7

64. Qattiq suv tarkibida kalsiy gidrokarbonat (0,0162 %) va magniy gidrokarbonat (0,0073 %) bor. 100 litr ($\rho = 1 \text{ g/ml}$) suvning qattiqligini yo'qotish uchun necha gramm so'ndirilgan ohak kerak?

- A) 11,1 B) 7,4 C) 3,7 D) 0,15

65. Ikkilamchi spirtni aniqlang.

- A) pentanol-3 B) 2,2,4-trimetilpentanol-1
 C) butanol-1 D) 2,3-dimetilbutanol-2


66. Ion kristall panjarali moddalar berilgan javobni belgilang.

- A) Fe , KNO_3 , S_8 B) KOH , NaCl , BaO
 C) NH_3 , O_3 , CO_2 D) Na_2CO_3 , H_2O , SiC

67. Yetarli miqdorda olingan alkan va kisloroddan iborat 18 ml aralashma yondirilganda 8 ml karbonat anhidrid hosil bo'lsa, alkan formulasini aniqlang. (barcha hajmlar bir xil sharoitda olingan)

- A) C_3H_8 B) C_4H_{10} C) C_2H_6 D) CH_4

68. Kerakli sharoitda qaysi ta'sirlashuv(lar)da asos hosil bo'ladi?



- A) faqat II B) II, III
 C) faqat I D) faqat III

69. Quyidagi holatlarning qaysilari to'g'ri?

- 1) molekular atomlardan tashkil topgan; 2) fizik hodisalar kimyoviy hodisalardan farq qilib, fizik hodisalarda molekular saqlanib qolmaydi; 3) kimyoviy hodisalarda molekulaning kimyoviy tarkibi o'zgaradi; 4) kimyoviy reaksiyaga kirishgan moddalarning massasi hosil bo'lgan moddalar massasiga teng bo'lmaydi; 5) molekular o'rtasida o'zaro tortilish va itarilish kuchlari mavjud

- A) 2, 4 B) 2, 3, 5 C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 5


70. 1 mol tetrapeptidning gidrolizidan olingan aminokislotalardan organik tuz olish uchun 3 litr 2 M li NaOH eritmasi sarflandi. Dastlabki tetrapeptid tarkibidagi aminomonokarbon va aminodikarbon kislotalar qoldig'i nisbatini (tegishli tartibda) aniqlang (aminokislotalar benzol halqasini saqlamaydi).

A) 1:3 B) 5:1 C) 1:4 D) 2:2

71. 22 g Li_2SO_4 3,2 mol suvda eritilganda tarkibida $3,7 \cdot N_A$ ta molekula va ion tutuvchi eritma hosil bo'ldi. Dissotsiatsiyalanish darajasini aniqlang (suvning dissotsiatsiyalanishini hisobga olmang).

A) 0,7 B) 0,6 C) 0,75 D) 0,85

72. Quyidagi sxemaning eng pastki yacheykalarida joylashgan moddalar qaysi sinflarga (a va b) mansub ekanligini aniqlang.



A) a – sikloalkanlar; b – murakkab efirlar
 B) a – murakkab efirlar; b – alkinlar
 C) a – spirtlar; b – alkenlar
 D) a – oddiy efirlar; b – alkadiyenlar




73. $^{56}_{26}Fe + X \rightarrow ^{56}_{25}Mn + ^1_1H$ reaksiyadagi X qanday zarracha?

A) proton B) β -zarracha
 C) α -zarracha D) neytron

74. Quruq tuz solingan 2 ta probirkadan birida natriy xlorid ikkinchisida natriy karbonat borligini qanday modda eritmasi bilan aniqlash mumkin?

A) stronsiy xlorid B) natriy bromid
 C) kaliy xlorid D) kaliy nitrat

75. Quyidagi reaksiyalardan foydalanib X modda molekulasidagi atomlar sonini toping.



A) 6 B) 18 C) 12 D) 15

76. 0,75 mol gaz holdagi butan, metan va alken aralashmasi bromli suv orqali o'tkazilganda idish massasi 14 g ga ortdi, gazlarning molekulalar soni esa 1,5 marta kamaydi. Bitta alken molekulasi tarkibidagi atomlar sonini toping.

A) 15 B) 6 C) 12 D) 9

77. 2 mol natriy xlorid saqlagan eritma 4 F tok bilan elektroliz qilinganda anodda va katodda necha grammdan modda ajraladi (inert elektrod)?

A) 32; 48 B) 40; 6 C) 71; 2 D) 87; 4

78. 17,1 g maltozaning gidrolizlanishidan olingan glukoza spirtli bijg'itildi. Hosil bo'lgan gaz 0,5 M li 400 ml natriy gidroksid eritmasiga yuttirilganda necha gramm tuz hosil bo'ladi?

A) 16,8 B) 21,2 C) 10,6 D) 8,4

79. 9 g metanal gomologi tarkibida $5 \cdot N_A$ elektron mavjud. Ushbu aldegidga 2,24 l (n.sh.) vodorod qo'shib katalizator ustidan o'tkazilganda qancha (g) reaksiya mahsuloti olinadi?

A) 4,6 B) 7,4 C) 8,8 D) 6

80. Mis (II)-sulfat eritmasidan elektr toki o'tkazilganda kislotada hosil bo'ldi. Bu kislotani neytrallash uchun 0,4 l 1N li natriy gidroksid eritmasi sarf bo'ldi. Katodda ajralgan misning massasini (g) aniqlang.

A) 1,28 B) 10,8 C) 128 D) 12,8

81. 40 g suvga eritma qo'shib, 100 g 7,2 %li eritma olindi. Dastlabki eritma konsentratsiyasini (%) aniqlang.

A) 12 B) 14,4 C) 18 D) 7,2

82. Temirning massa ulushi 28 % bo'lgan temir-magniy aralashmasi suyultirilgan sulfat kislotada eritilganda 2,1 mol gaz ajraldi. Ishlatilgan aralashmaning massasini (g) toping.

A) 30 B) 60 C) 40 D) 70


83. NO_2 va N_2O aralashmasidagi moddalarning massa nisbati 23 : 44 bo'lsa, ulardagi atomlar soni nisbatini ko'rsating.

A) 3:1 B) 1:2 C) 2:3 D) 1:4

84. $CO_{2(g)} + H_{2(g)} \leftrightarrow CO_{(g)} + H_2O_{(g)}$ reaksiyaning muvozanat konstantasi 1 ga teng. Vodorod molekulalarining 90 foizi reaksiyaga kirishganidan so'ng muvozanat qaror topdi. Dastlab CO_2 va H_2 qanday hajmiy nisbatda aralashtirilgan?

A) 9:1 B) 1:1 C) 5:1 D) 1:3

85. Quyidagi rasmda kislorodning laboratoriyada olinishi tasvirlangan bo'lib, reaksiya natijasida qanday oksid hosil bo'ladi? (Moddalarning rangi va shakli tabiiy emas.)




- A) amfoter B) befarq
C) asosli D) kislotali

86. $3Fe_{(q)} + 4H_2O_{(g)} \leftrightarrow Fe_3O_{4(q)} + 4H_{2(g)} + Q$ qaytar reaksiyaga quyidagi jadvalda keltirilgan omillar ta'sir ettirilganda muvozanat qaysi yo'nalishda siljiydi?

ta'sir etuvchi omillar	siljish yo'nalishi
a) haroratning pasayishi;	1) o'ngga siljiydi;
b) bosimning kamayishi;	2) chapga siljiydi;
c) vodorod konsentratsiyasining oshirilishi;	3) siljmaydi
d) suv bug'i konsentratsiyasining kamaytirilishi	

- A) a-1, b-2, c-2, d-1 B) a-1, b-3, c-2, d-1
C) a-2, b-3, c-1, d-2 D) a-1, b-3, c-2, d-2

87. Quyidagi 2 ta bir-biridan mustaqil reaksiya zanjirlaridagi X_1 va X_2 moddalar tarkibida azot elementi, Z_3 va Z_4 moddalar tarkibida uglerod elementi bo'lsa, X_2 va Z_4 noma'lum moddalarning nisbiy molekulyar massalari farqini aniqlang.



- A) 1 B) 4 C) 2 D) 3

88. Kalsiy qaysi modda bilan odatdagi sharoitda reaksiyaga kirishadi?

- A) azot B) fosfor C) suv D) ammiak

89. 1964 g nitrat kislota eritmasiga X g KOH qo'shilganda eritmadagi kislolaning yarmi KOH bilan reaksiyaga kirishdi va KNO_3 ning massa ulushi 5 % ga teng bo'lgan eritma olindi. Shu eritmada qolgan kislotani neytrallash uchun

unga yetarlicha natriy solindi (suv bug'lanmagan). Hosil bo'lgan eritmadagi $NaNO_3$ ning massa ulushi 1,7 % ga teng bo'lishi uchun unga necha gramm suv qo'shish kerak?

- A) 2880 B) 2980 C) 2981 D) 2958

90. CH_4 , SO_2 va noma'lum X gazdan iborat gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 18 ga teng. Agar aralashmada $V(CH_4) = V(SO_2)$ va $m(SO_2) = m(X)$ bo'lsa, ushbu shartlarni qanoatlantiradigan X gaz qaysi gazlar bo'lishi mumkin?

- A) silan, kislorod
B) azot, etilen
C) fosfin, vodorod sulfid
D) etan; azot (II)-oksid

✓ Test javoblarini @rb_edu_bot ga yuboring

✓ Natijalar @KimyoRB kanalida e'lon qilinadi